

**№ 6 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 6 (3)-2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохидা Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик  
Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ .....	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР .....	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKHLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: T AHLIL VA MULOHAZALAR .....	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ .....	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA .....	43-48

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYaLARNI JORIY ETISH MASALALARI .....	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> КОМПАНИYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O'RNI .....	56-65
<i>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ .....	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиеевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ .....	75-80
<i>Абдиеva Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКИНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ .....	81-91
<i>Tўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Ҳакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ .....	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	109-114

*Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё*  
**АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ  
 ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ЎРНИ .....** 115-125

*Худаярова Хуршида Абдуназаровна*  
**ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ  
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ .....** 126-132

## **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Бойдадаев Абдурроҳмон Толибжон ўғли*  
**РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ.....** 133-141

*Алиқулов Ҳусниддин Ақбарович*  
**ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР.** 142-151

*Сайдова Камола Усканбаевна*  
**РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ  
 СИФАТИДА .....** 152-156

*Shirinov Anvar Qanoatovich*  
**MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIY-  
 FALSAFIY TAHLILI .....** 157-162

*Хасанов Бобуржон Ҳакимович*  
**ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ  
 ОЛИШНИНГ ҒОЯВИЙ-МАФҚУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ .....** 163-167

*Xodjayeva Fotima Nabixonovna*  
**AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF .....** 168-172

## **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Rustamova Shaxnoza Abduraximovna*  
**MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI .....** 173-180

*Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi*  
**MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH  
 TENDENSIYALARI .....** 181-191

*Turg'unova Fazilat Rustam qizi*  
**PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI .....** 192-197

*Saidov O'lmas Raxmatovich*  
**O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI .....** 198-206

*Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna*  
**O'ZBEKİSTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA .....** 207-213

*Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li*  
**MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHIYATGA EGA NUTQ  
 TA'SIRINING USULLARI .....** 214-219

<i>Murodova Nilufar Karomatovna</i>	
BLOGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI .....	220-224
<i>Ochilova Hilola Husan qizi</i>	
XITOY TILIDA NOMINALIZATSİYA HODİSASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	225-229
<i>Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li</i>	
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI .....	230-238
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
"MULLO NASRIDDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA .....	239-245

## 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ .....	246-256

## 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Jumayev Rustam G'aniyevich</i>	
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	257-263

<i>Бозорова Муслима</i>	
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА .....	264-270

<i>Samadova Sarvinoz Samad qizi</i>	
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR....	271-275

<i>Жўраев Воҳид Тоҷимаматовиҷ</i>	
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ .....	276-288

<i>Бозорова Назокат</i>	
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА .....	289-295

<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
MAKTAB O'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYALARI BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI .....	296-301

<i>Sharipova Sitora Xaydarovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISH .....	302-307

<i>Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna</i>	
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH .....	308-312

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI .....	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEKNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI-ODDIYLIK DAN KOMILLIK SARI .....	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ .....	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI .....	343-349
<i>Бекимбетова Дильтуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	350-356

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Mirsoatova Sayyora Turg'unovna,**  
Farg'ona Davlat Universiteti Jahon tarixi  
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich,**  
FarDU, Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

### **FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining mezolit va neolit davri jamoalarining o'zaro madaniy aloqalari, neolit davrida odamlarning o'troq turmush tarziga o'tishi va bu dehqon jamoalari o'rtasida o'zaro aloqalar rivojlanishiga imkon berishi Markaziy Farg'ona madaniyatiga oid mezolit va neolit davri yodgorliklarini tadqiqotida qo'shni Kaltaminor, Sazag'on hamda Hisor jamoalari bilan o'zaro madaniy aloqada bo'lganliklari va boshqa bir qator masalalar yuzasidan so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Dam-dam Chashma 1, G.F.Korobkova R.Breydvud, B.Xouv, F.Smit, YE.Bijanov, tog' mezoliti, tog' neoliti, Obishir madaniyati, Oshxona, Tutqovul, Quyi Zarafshon vohasi, Chorbaqtqi, Kaltaminor madaniyati, Oyukli madaniyati, Sazag'on, Ustyurt neolit jamoalari, Hisor madaniyati.

**Мирсоатова Сайёра Тургуновна,**  
доцент кафедры всеобщей истории  
Ферганского государственного университета,  
кандидат исторических наук

**Мухсиддинов Аорбек Мамурович,**  
ФарДУ, магистрант археологии

### **О КУЛЬТУРНЫХ ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ОБЩИН МЕЗОЛИТА И НЕОЛИТА ФЕРГАНЫ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются культурные связи мезолитических и неолитических общин Ферганской долины, переход людей к оседлому образу жизни в эпоху неолита, развитие взаимоотношений между этими земледельческими общинами при исследовании памятников. периода неолита обсуждались их культурные контакты с соседними общинами Калтаминор, Сазагон и Хисар и ряд других вопросов.

**Ключевые слова:** Плотина Чашма 1, Г. Ф. Коробкова, Р. Брейдвуд, Б. Хоув, Ф. Смит, Ю. Э. Биджанов, горный мезолит, горный неолит, обиширская культура, кухня, Туткавул, Нижне-Зарафшанский оазис, Чорбахты, кальтаминорская культура, Оюклиская культура, сазагон, устюртские неолитические общины, гисарская культура.

**Mirsoatova Sayyora Turgunovna,**  
Associate Professor of the World History Department  
of Fergana State University,  
Candidate of historical sciences

**Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich,**  
FarDU, Master's student in archaeology

## ON THE CULTURAL RELATIONSHIPS OF THE COMMUNITIES OF THE MESOLITH AND NEOLITHIC PERIOD OF FERGANA

**Abstract.** In this article, the cultural relations between the Mesolithic and Neolithic communities of the Fergana Valley, the transition of people to a sedentary lifestyle in the Neolithic period, and the development of mutual relations between these farming communities are discussed. in the research of the monuments of the Neolithic period, it was discussed about their cultural contacts with the neighboring communities of Kaltaminor, Sazag'on and Hisar, and a number of other issues.

**Key words:** Dam-dam Chashma 1, G.F. Korobkova, R. Braidwood, B. Hove, F. Smith, YE. Bijanov, mountain Mesolithic, mountain Neolithic, Obishir culture, Kitchen, Tutkavul, Lower Zarafshan oasis, Chorbakhti, Kaltaminor culture, Oyukli culture, Sazag'on, Ustyurt Neolithic communities, Hisar culture.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N05>

Tarixoldining mezolit davriga kelib ibtidoiy jamoalararo madaniy aloqalar yanada faollashgan bo'lib, Dam-dam Chashma 1 makoni 4, 5-madaniy qatlami tosh quollarining Yaqin Sharq hududidagi Zarzi, Palegavra, Shanidar makonlari tosh quollariga o'xshashlik kuzatadi. Bu haqda G.F.Korobkova R.Breydvud, B.Xouv, F.Smit kabi chet ellik tadqiqotchilar ham o'z izlanishlarida ma'lumot keltirishganliklarini qayd etadi [9]. YE.Bijanovning keyingi tadqiqotlarida Ustyurt jamoalari moddiy madaniyati shakllanishida Kaspiybo'yи va Janubiy Ural hududi mezolit jamoalarining madaniy ta'sirini alohida ta'kidlaydi [1: 17-24].

O'Islomov Farg'ona vohasida tadqiq etilgan mezolit jamoalari moddiy madaniyatini «Obishir madaniyati» nomi bilan fanga olib kiradi va bu madaniyat ko'p jihatlari bilan Tojikiston hududidagi Oshxona, Tutqovul yodgorliklari madaniyatiga yaqinligini e'tirof etadi. Shuningdek, olim tomonidan Obishir 1 va 5 makonlari tosh industriyasining Toshko'mir, Qo'shilish yodgorliklari tosh industriyasiga o'xshashlik jihatlarini ham qayd etiladi [5: 54-57; 6; 7; 8].

V.A.Ranov ham Tojikiston mezolit jamoalari madaniyati ko'p jihatlari bilan Obishir madaniyatiga o'xshashligini alohida e'tirof etadi [17; 18; 19; 20; 21; 22].

Quyi Zarafshon vohasi Chorbaqtı mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatining Samarqand makoni hamda O'rta Osiyotog' mintaqasi paleolit, mezolit jamoalari madaniyatiga o'xshashlik jihatlari ham tadqiqotlarda kuzatilgan [25: 27-44]. Qayd etish kerakki, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar O'rta Osiyo mezolit davri jamoalarining o'zaro madaniy aloqalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ma'lumki, mezolit davri oxiri va neolit davriga (mil.avv. 6-4 ming yil) kelib, O'rta Osiyoning turli mintaqalarida (tog', tog' yon bag'ri, pasttekislik) o'zgacha tabiiy landshaft, ekologik, iqlimiylar sharoitlarga tushib qolgan jamoalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turli madaniyat sohiblari bo'lishgan. Bu madaniyatlar tadqiqotida ularning o'zaro madaniy aloqada bo'lishganliklari haqida qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Xususan, S.P.Tolstov birinchi bo'lib Kaltaminor jamoalarining Janubiy Turkmaniston va Yaqin Sharq hududi jamolari bilan madaniy aloqada bo'lishganligi masalasiga e'tibor qaratgan [23].

Keyinroq, Kaltaminor jamoalarining O'rta Osiyo janubiy hududlari neolit jamoalari bilan yaqindan madaniy aloqada bo'lganligini yangi arxeologik ashyolar asosida A.V.Vinogradov o'z

izlanishlarida atroficha yoritib berdi [2: 40-45]. Shuningdek, Kaltaminor jamoalarining shimoliy, shimoliy-sharqiy Kaspiybo'yi, Janubiy Ural, Uralorti, Janubi-g'arbiy Qozog'iston hududlari neolit jamoalari madaniyatiga ta'siri masalasi ham tadqiqotlarda keng yoritildi [3: 161-170; 10: 29].

G.YE.Markov va S.Hamroquliyevlar Oyukli madaniyatining Kaltaminor jamoalari madaniyatiga ba'zi jihatlari bilan o'xshashligini qayd etishdi [12: 67-76].

M.J.Jo'raqulov va N.O.Xolmatovlar O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yonbag'rida tadqiq etilgan Sazag'on neolit jamoalarining qo'shni Hisor (Markaziy va janubiy Tojikiston), Markaziy Farg'ona (Farg'ona vohasi) hamda Kaltaminor (Quyi Zarafshon vohasi, Qizilqum sarhadlari) jamoalari bilan yaqindan madaniy aloqada bo'lib, yashaganliklarini e'tirof etishadi. Masalan, chaqmoqtoshdan yasalgan butun holatdagi paraqaning astar tomoni ikki yon qirrasi bo'ylab chuqur kirib boruvchi kertish usulida ishlov berilgan paraqa qurollari Kaltaminor jamoalari hamda Sazag'on neolit jamoalari makonlaridan turkum holda topilgan [4: 89, 90, 110-113].

O'z navbatida, O'.Islomov va V.I.Timofeyev ham Farg'ona vohasida tadqiq etilgan Markaziy Farg'ona madaniyati makonlari tosh quollarining qo'shni Hisor va Sazag'on neolit jamoalari tosh quollariga o'xshashlik jihatlari to'g'risida fikr bildirishgan [8: 108-112]. YE.Bijanov Ustyurt neolit jamoalarining moddiy madaniyati o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalar ekan, jamoalar madaniyati ko'p jihatlari bilan qo'shni hududlar jamoalari madaniyatiga yaqinligi borligini e'tirof etgan [1: 24-36].

V.A.Ranov Tojikiston sarhadlarida tadqiq etilgan Hisor neolit jamoalari madaniyatini izohlar ekan Kaltaminor va Hisor jamoalari o'zaro aloqalari masalasida O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yonbag'rida o'z madaniyatida bir tomonidan O'rta Osiyo tog' mintaqasi klassik Hisor neolit jamoalari, ikkinchi tomonidan O'rta Osiyo pasttekislik mintaqasi Kaltaminor neolit jamoalari madaniyati ba'zi jihatlarini o'yg'unlashtirgan Sazag'on neolit jamoalari madaniyatining o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratdi [21: 116]. Tadqiqotchining bu fikri O'rta Osiyo neolit davri jamoalari o'zaro qo'shnichilik madaniy aloqalarini bilishimizda nihoyatda ahamiyatlidir. Janubiy Turkmaniston hududi joyitun neolit jamoalari madaniyatining Yaqin Sharq, Sharqiy Kaspiy bo'yi hududlari neolit jamoalari madaniyati bilan o'xshashlik jihatlari to'g'risida V.M.Masson tadqiqotlarida qiziqarli ma'lumotlar mavjud [13-15]. Shuningdek, O'rta Osiyo neolit davri jamoalari o'zaro qo'shnichilik madaniy aloqalari masalasida shu satrlar muallifining izlanishlari ham ahamiyatlari hisoblanadi [25-29].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni endi, bevosita Markaziy Osiyo neolit jamoalari madaniyatlari tizimida ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. S.P.Tolstov, A.V.Vinogradovlar tadqiqoticha kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari bir tomonidan, O'rta Osiyo janubiy hududlari joyitun, Sharqiy Kaspiy bo'yi neolit jamoalari, Shimoliy Balxan bo'yi hamda Ustyurt neolit jamoalari bilan, ikkinchi tomonidan, Shimoliy va Shimoli-Sharqiy Kaspiy bo'yi, Volga bo'yi, Janubiy Ural va Ural orti hamda Janubi-G'arbiy, Markaziy va Shimoliy Qozog'iston mintaqalari neolit jamoalari bilan o'zaro qo'ni-qo'shnichilik madaniy aloqadorlikda bo'lishgan [11: 29; 13; 24: 113-129].

Markaziy va Janubiy Tojikiston xududlari mezolit-neolit jamoalari moddiy madaniyati tadqiqoti jarayonida ham ibtidoiy jamoalar o'zaro madaniy aloqadorlikda bo'lishganliklarini bildiruvchi manbalar qo'lga kiritilgan. Jo'g'rofiy nuqtai nazardan Osiyoning eng baland tog'lari sirasiga kiruvchi Pomir tog'i atroflari arxeologik jihatdan birmuncha yaxshi o'rganilgan.

V.A.Ranovning kuzatishlaridan mazkur hududda qadimgi muzliklar tarqalgan joylardan pastroq qismlari odamzod tomonidan tosh asridayoq o'zlashtirilganligi ma'lum bo'ldi. Bu joylar turli balandlikdagi tog' oraliq vohalari, tog' daryolari yon daralari va vohalari, tog' yon bag'rilarini tashkil qiladi. V.A.Ranovning fikricha, bu hududlar N.A.Kostenko tomonidan ishlab chiqilgan uchinchi geomorfologik mintaqasi hisoblanadi. Shu tog' tepaliklari ichida Dengiz sathidan hisoblaganda 1000-2000 metr balandlikda bo'lgan joylarda, asosan Janubiy Tojikistonda «klassik tog' neoliti» deb nom olgan hisor jamoalarini makonlari joylashgan [16; 19-21].

Sharqiy Pomir tog' mintaqalari ham arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan. Dengiz satxidan 3700-4200 metr balandlikda bo'lgan mazkur joylarda insoniyat tosh asri paleolit jamoalariga qarashli bo'lgan makonlardan tashqari mezolit jamoalariga tegishli makonlar (Oshxona, Istiq) kashf etilib, «Markansuy» madaniyati nomi bilan fanga kiritilgan. Bu madaniyatning ham xuddi hisor jamoalarini madaniyatidek «tog' mintaqasining maxsus sharoiti chegarasida» shakllanganligi tadqiqotlarda aniqlangan [22: 11]. O'rta Osiyo tosh asri arxeologiyasida keyingi yillarda «tog' mezoliti», «tog' neoliti» degan atamalar ishlatila boshlandi. Bu atamalar mazmuni, albatta, jamoalar madaniyatining o'ziga xosligiini ifodalaydi.

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida sazog'on neolit jamoalarini madaniyati tadqiqotlari natijasi mazkur jamoalarning o'zlariga xronologik jihatdan tengdosh bo'lgan Kaltaminor, Hisor va Markaziy Farg'ona jamoalarini bilan o'zaro qo'nishni qo'shinchilik madaniy aloqadorlikda bo'lganliklarini ko'rsatdi. Kaltaminor jamoalarini bilan madaniy yaqinlilik dastavval ular tosh qurollarining yasalish xususiyatlari, xom ashyosi, tosh industriyasining paraqali qismi, sopol idishlarning o'xshashligi kabi jihatlar bilan belgilanadi. Sazag'on neolit makonlari tosh industriyasini paraqali qismida geometrik shakldagi mikrolit qurollarining uchrashi ham bu madaniy aloqadorlikni bilishda muhim hisoblanadi.

Takidlash joizki, mazkur hududlar ibtidoiy jamoalarini o'rtasidagi madaniy aloqalar nisbatan oldingi tarixiy davrlarda, ya'ni so'nggi paleolit oxirlari-ilk mezolit davrida ham bo'lganligi tadqiqotlarda aniqlangan. O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida o'rganilgan sazog'on neolit jamoalarini moddiy madaniyati ba'zi jihatlari bo'yicha Farg'ona vohasi Markaziy Farg'ona neolit jamoalarini madaniyati bilan o'zaro yaqinligi makonlar tosh industriyasini paraqali qismida mikroparaqalar salmog'i ko'pligi (Markaziy Farg'ona jamoalarini makonlarida 90%; Sazag'on makonlarida 60-65%) bilan izohlanadi. Bu makonlar tosh industriyasida O'rta Osiyo tog' mintaqasi neolit jamoalariga xos bo'lgan uchirindidan yasalgan qurollar, aniqrog'i ponasimon qurollar, tik, baland ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar, «burunchali» ko'rinishidagi ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar, yon tomoni old qismiga ishlov berilgan tosh o'zaklarining mavjudligi madaniy aloqadorlikning yana bir dalili bo'lib hisoblanadi.

Markaziy Farg'ona neolit jamoalarini madaniyatining Hisor jamoalarini madaniyatiga ba'zi jixatlari bilan o'xshashligi borligi ham tadqiqotlarda aniqlangan. Bu madaniy yaqinlik o'z vaqtida Y.A.Zadneprovskiy tomonidan Oqtangi makoni manbalari misolida keltirilgan edi. Keyinchalik, O'.Islomov va V.Timofeyevlar ham bu madaniy aloqadorlikni e'tirof etishgan [8: 83]. Bu aloqadorliklar ular tosh industriyasida O'rta Osiyo tog' mintaqasi neolit jamoalariga xos bo'lgan tosh qurollari mavjudligi bilan izohlanadi. Kaspiy va Orol dengizlari oralig'ida keng sarhadlarida Ustyurt neolit davri jamoalarini moddiy madaniyatiga tegishli yodgorliklar tadqiq etilgan. Tadqiqotlarda neolit jamoalarini qo'shni jamoalar bilan o'zaro madaniy aloqada

bo'lishganliklari borasida ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Bu madaniy aloqalar yodgorliklar tosh industriyasi xarakterida, shuningdek, tosh quollarining o'xshashligida namoyon bo'lgan. Jumladan, asimmetrik shakldagi trapetsiya qurollari Joyitun, Sharqiy Kaspiy bo'yи, Kaltaminor, Janubiy Ural makonlari quollariga, «shoxsimon» trapetsiya mikrolit qurollari esa Daryosoy, Janubi-g'arbiy Qozog'iston mezolit – neolit jamoalari quollariga o'xshashdir. Shu bois, Ustyurt jamoalari Kaltaminor, Sharqiy Kaspiy bo'yи, Uralning janubiy qismi neolit jamoalari bilan yaqindan madaniy aloqadorlikda bo'lishganligi tadqiqotlarda aniqlandi.

Xullas, Markaziy Farg'ona madaniyatiga oid yodgorliklar tadqiqotida qo'shni Kaltaminor, Sazag'on hamda Hisor jamoalari bilan o'zaro madaniy aloqada bo'lganliklari ma'lumotlari qo'lga kiritildi. Aytish mumkinki, ushbu ma'lumotlar Markaziy Farg'ona neolit jamolari madaniyatining O'zbekiston hududi neolit jamoalari madaniyatlari tizimida mustaqil madaniyat sifatidagi o'rnnini aniqlash imkonini beradi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Бижанов Е.Б. Каменный век Устюрта / Автореф. на соискание уч. степени д.и.н. – Нукус, 1996. – С. 32.
2. Виноградов А.В. К вопросу о южных связах келтеминарской культуры // СЭ, 1957. № 1. – С.40-45.
3. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья. – Москва: Наука, 1981.
4. Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1991.
5. Исламов У.И. Мезолитическая стоянка Кушилиш под Ташкентом // ОНУ, 1970. № 7. – С. 54-57.
6. Исламов У.И. Пещера Мачай. – Ташкент: Фан, 1975.
7. Исламов У.И. Обиширская культура. – Ташкент: Фан, 1980.
8. Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Ташкент: Фан, 1986.
9. Коробкова Г.Ф. Мезолит Средней Азии и Казахстана. Мезолит СССР. – Москва: Наука, 1980. – 154 с.
10. Крижевская Л.Я. К вопросу о взаимоотношения населения Южного Урала и Средней Азии в неолитическую эпоху // КСИА, 1970. Вып. 122. – С. 26-32.
11. Крижевская Л.Я. К вопросу о неолите Северо-Восточного Прикаспия / МИА, № 185. 1972.
12. Марков Г.Е., Ҳамрокулиев С. Новая стоянка оюклинской культуры в Северном Прибалханье // Вестник МГУ (История). 1980. – С. 67-76.
13. Массон В.М. Южнотуркменистанский центр раннеземледельческих культур / Труды ЮТАКЭ, Т. 10. 1960.
14. Массон В.М. Земледельческий неолит юго-запада Средней Азии // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – Ленинград: Наука, 1966.
15. Массон В.М. Поселение Джейтун (проблема становления производящей экономики). – МИА, №180. – Ленинград: Наука, 1971. – 206 с.
16. Окладников А.П. Палеолит и мезолит Средней Азии. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. // – М.Л., 1966.
17. Ранов В.А. Памир и проблема заселения высокогорной Азии человеком каменного века // Страны и народы Востока, Вып. XVI, – Москва, 1975.

18. Ранов В.А., Юсупов А.Х., Филимонова Т.Г. Каменный инвентарь стоянки Дараи Шур и его культурные связи / Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита до бронзы). – Душанбе: Доныш, 1982. – С. 5-12.
19. Ранов В.А. Гиссарская культура: распространение, хронология, экономика. // Культура первобытной эпохи Таджикистана. – Душанбе, 1982.
20. Ранов В.А. Гиссарская культура – неолит горных областей Средней Азии // Каменной век Северной, Средней и Восточной Азии. – Новосибирск. 1985.
21. Ранов В.А. Неолит (гиссарская культура) / История Таджикского народа. Том 1. – Душанбе, 1998. – С.3-23.
22. Ранов В.А. Освоение высокой Азии человеком каменного века (на примере гор Средней Азии) / Средняя Азия в древности и средневековье. – Москва, 1977.
23. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Наука, 1948.
24. Формозов А.А. Проблемы этнокультурной истории каменного века на территории Европейской части России. – Москва: Наука, 1977.
25. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 2007.
26. Холматов Н.У. Неолитическая стоянка Джангаль 1 (новые данные о культурных контактах населения равнин и предгорий) // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке в Средней Азии. – Ташкент, 1988.
27. Холматов Н.У. Общее и особенное Центрально Ферганского и Самаркандского неолита / Палеоэкология и проблемы первобытной археологии Центральной Азии. – Самарқанд: Изд- во ИА АН РУз, 1992. – С. 37-38.
28. Холматов Н.Ў. Сазағон неолитининг ўзига хос қирралари ва қўшничилик маданий алоқалари / Археология, қадимги дунё тарихи ва этнография. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2001. – Б. 55-61.
29. Холматов Н.Ў. Ўрта Осиё неолит жамоалари тарихий-маданий алоқалари саҳифасидан // Ўзбекистонда этно-демографик жараёнлар. Халқаро конференция материаллари. 1-қисм. – Тошкент, 2005. – Б. 107-111.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 6 (3) – 2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамият**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).